



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'ZBEK TILIDA INGLIZ TILINING FONETIK MUAMMOLARI

Ilmiy rahbar: Xolmurodova Madina

Umarjonova Dilfuzaxon Dilshodjon qizi

O'zDJTU, "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili" yo'nalishi

1-kurs talabasi, Toshkent, O'zbekiston

umarjonovadilfuza8@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179594>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ingliz tilidagi fonetik qiyinchiliklari chuqur tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'rganishda o'zbek tilida so'zlashuvchilarning eng katta qiyinchiliklaridan biri fonetik to'g'ri talaffuz qilishdir. Ushbu muammolar fonetik interferensiya, urg'u, intonatsiya hamda tovush tizimlarining tafovutlaridan kelib chiqadi. O'zbek tili fonetikasi asosan monoftonglarga asoslangan bo'lsa, ingliz tilida ko'plab diftonglar uchraydi. Bu esa o'zbek tilida so'zlashuvchilarning inglizcha so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, ingliz tilida urg'u va intonatsiya muhim rol o'ynaydi, holbuki, o'zbek tilida urg'u nisbatan barqaror va intonatsiya kam o'zgaruvchan hisoblanadi. Bu esa ingliz tilida tabiiy va ravon gapirishga xalaqit berishi mumkin. Fonetika ustida ishlash o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ingliz tilida aniq va tushunarli nutq shakllantirishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Urg'u, intonatsiya, diftong, monoftong, fonetik interferensiya, til tafovutlari, fonetika.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda chet tillarini o'qitish va keng targ'ib qilishga qaratilgan katta e'tibor tufayli xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini puxta o'rganayotgan yoshlar soni sezilarli darajada oshib bormoqda, ammo bu sohada ham muammolar yetarlicha. O'zbek va ingliz tillari turli til oilasiga mansub bo'lganligi sababli talaffuz qilishda katta farqlar mavjud. Ingliz tilidagi unli tovushlar tizimi (monophtong, diphthong va triphthong), urg'u va intonatsiyadagi tafovutlar til o'rganuvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. O'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlar, urg'u (stress), intonatsiya va fonetik qonuniyatlarning farqliligi sababli aksariyat o'zbek o'quvchilari inglizcha talaffuzda xatolarga yo'l qo'yishadi. Masalan, "knight" so'zida "k" tovushi talaffuz qilinmaydi, bu esa o'rganuvchilar uchun murakkablik tug'dirishi mumkin. Fonetika yordamida talaffuzning bu kabi qoidalarini o'rganish osonlashadi va o'quvchi so'zlarni to'g'ri aytishga o'rgatiladi [1]. Ma'lumki, O'zbekistonda ingliz tili maktablarda va hatto bog'chalarda ham o'rgatib kelinmoqda, lekin bu bolalar uchun talaffuzdagi noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Masalan: ingliz tilidagi ko'plab tovushlar o'zbek tilida umuman uchramaganini hisobga olsak, "fonetik interferensiya" hodisasi sodir bo'ladi. "Fonetik interferensiya" atamasi til o'rganishda, bir tildan boshqasiga o'tishda uchraydigan talaffuzdagi xatoliklarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa, o'z ona



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tilidagi fonetik tizimni boshqa tilga o'tkazishda, o'ziga xos tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishga olib keladi. Misol uchun, ingliz tilidagi "th" tovushini o'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovush sifatida aytish, bu interferensiyaning o'ziga xos misoli hisoblanadi. O'zbek tilida "th" tovushiga o'xshash maxsus fonemalar mavjud emas, shuning uchun o'zbek tilida gaplashuvchi insonlar ko'pincha quyidagi usullardan birini ishlatadilar:

1. /t/ yoki /d/ tovushlari bilan almashtirish:

Misol: "think" so'zini "tink", "this"ni "dis" deb aytish. Bunda "th" tovushi "t" yoki "d" bilan o'zgartiriladi.

2. /s/ yoki /z/ tovushlari bilan almashtirish:

Misol: "thick" so'zini "sick" deb aytish yoki "these"ni "zeez" deb talaffuz qilish. Bunda "th" tovushi "s" yoki "z" bilan o'zgartiriladi.

3. Tovushni butunlay tashlab yuborish:

Ba'zida "th" tovushini butunlay talaffuz qilmaslik, masalan "think"ni "ink" yoki "with"ni "wit" deb aytish.

Bundan tashqari, o'zbek tilida qisqa va cho'ziq unilarning ahamiyati ingliz tilidagidek ma'noga katta ta'sir o'tkazmaydi, lekin ingliz tilida so'zning ma'nosi birgina unlining qisqa yoki cho'ziqligiga qarab farqlanadi. Misol uchun: /ɪ/ (as in "sit") tovushi ham ba'zida o'zbek tilidagi /i/ tovushi bilan aralashadi, bu esa "sit"ni "seet" yoki "seat"ni "sate" deb talaffuz qilishga olib keladi. Shuningdek, /æ/ (as in "cat") tovushi o'zbek tilida mavjud emas. O'zbek tilida, bu tovush ko'pincha /a/ bilan almashtiriladi, ya'ni "cat"ni "kat" deb aytish. Bu esa talaffuzda sezilarli farqni keltirib chiqaradi va boshqalar tomonidan tushunishni qiyinlashtiradi. Amerika ingliz tilida sakkizta unli tovush mavjud bo'lib, ular odatda diftonglar sifatida qabul qilinadi. Ulardan to'rttasi "an'anaviy" cho'zilgan unililar (harflarning nomlari bilan bir xil talaffuz qilinadigan unli tovushlar), ammo ba'zi bir unli digraflar yoki R harfi bilan birga keladigan yana bir nechtasi bor [2]. Ammo o'zbek tilida diftonglar, odatda, kuzatilmaydi va bu, albatta, til o'rganuvchilarga bu ikki tilni qiyoslab o'rganishlariga to'sqinlik qiladi. Farqlar faqatgina unililar tizimida emas, albatta. Undosh tovushlar (Consonant sounds)da ham katta tafovutlar mavjud. Misol uchun:

/ʒ/ (as in "measure") yoki /ʃ/ (as in "she") tovushlari o'zbek tilida mavjud emas, bu esa noto'g'ri talaffuzga olib keladi. O'zbek tili talaffuz tizimida, bu tovushlar ko'pincha /z/ yoki /s/ bilan almashtiriladi.

/v/ va /w/ tovushlari ham ba'zan noto'g'ri talaffuz qilinadi, chunki o'zbek tilida bu tovushlar orasida farq qilish ancha kamroq. Masalan, "vine"ni "wine" deb aytish, yoki "west"ni "vest" deb aytish.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'zbek tilida ingliz tili o'rganuvchilar faqatgina unli va undosh tovushlar tizimida qiyinchiliklarga duch keladi deb ayta olmaymiz, albatta. Fonetika bo'limida nafaqat harflar, balki urg'u ham alohida ahamiyatga ega hisoblanib, o'zbek va ingliz tillarida so'zlarga urg'u turlicha qo'yiladi. Ushbu jumlagi ta'rif beradigan bo'lsak, urg'u - so'z bo'g'inlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi [3]. So'zlarning ma'nosi faqat talaffuzidagi urg'uga qarab o'zgarishi mumkin. O'zbek tilida urg'u odatda so'zning birinchi bo'g'iniga tushadi, lekin ingliz tilida bu o'zgaradi va ba'zan o'zbek tilidagi talaffuzga moslashish muammolarga olib keladi. Masalan, "record" so'zi ingliz tilida verb sifatida /rɪ'kɔ:d/ talaffuz qilinsa, noun sifatida /'rɛkɔ:d/ talaffuz qilinadi. O'zbek tilida esa urg'u odatda so'zning birinchi qismida bo'ladi, bu esa noto'g'ri talaffuzga olib kelishi mumkin. *"Some words are both nouns and verbs. For example record is a noun if you put stress on the first syllable."*[4] Ingliz tilida ba'zi so'zlar ham ot, ham fe'l bo'lib kelishi mumkin, ya'ni bunday so'zlarda urg'uga e'tibor qaratilmasa talaffuzdagi sezilarli g'alizliklarga sabab bo'ladi. Bu kabi so'zlarga *record, contrast, desert, export, object, present, produce, protest va rebel* kabi so'zlarni misol keltirishimiz mumkin. Ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari, shuningdek, diftonglar va bog'langan tovushlar sababli ingliz tili talaffuzida jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadilar. O'zbek tilida diftonglar va bog'langan tovushlar mavjud emasligi sababli, ingliz tilini o'rganayotgan o'zbeklar quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin:

1. Diftonglarni to'g'ri talaffuz qilish qiyin. O'zbek tilida har bir unli tovush alohida talaffuz qilinadi, shuning uchun inglizcha diftonglar ba'zan o'zbek tilidagi ikkita alohida unli sifatida talaffuz qilinishi mumkin. Misol uchun bir nechta xato talaffuz misollarini ko'rib chiqishimiz mumkin: *make* /meɪk/ → "mek" deb noto'g'ri aytilishi mumkin. *time* /taɪm/ → "tah-im" deb talaffuz qilinishi mumkin. *go* /gəʊ/ → "go" (diftongsiz) deb aytilishi mumkin.

2. Linking sounds (bog'langan tovushlar) ni tushunish qiyin. O'zbek tilida so'zlar aniq va alohida talaffuz qilinadi, lekin ingliz tilida ko'p so'zlar bir-biriga bog'lanadi. Shuning uchun ingliz tilidagi gaplarni tushunishda muammolar yuzaga keladi. *What are you doing?* → "wɒtə ju: du:ɪŋ?" (so'zlar bir-biriga bog'lanadi) *Go on!* → "Go-won!" (w tovushi paydo bo'ladi) *Far away* → "Fara-way" (r tovushi kuchayadi) O'zbek tilida esa har bir so'z aniq aytiladi: "Siz nima qilyapsiz?" (so'zlar bog'lanmaydi).

3. Intonatsiya va tovushlarning baland yoki pastligi o'zbek tilidan farq qiladi va shu sababli o'rganishda qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, ingliz



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tilidagi intonatsiya naqshlari – ko'tarilish yoki pasayish kabi muloqotda kayfiyat, munosabat va urg'uni yetkazishga yordam beradi. Intonatsiya, shuningdek, bayonotlar va savollarni farqlashda yoki hayratlanish yoki ishonchsizlik kabi his tuyg'ularni ifodalashda rol o'ynaydi. Umuman olganda, ingliz tilining fonetik xususiyatlari uning melodik sifatiga hissa qo'shadi va uni tovush orqali nozik tuyg'ularni ifodalashga imkon beruvchi dinamik tilga aylantiradi [5]. Ammo intonatsiya o'zbek tilida ingliz tilichalik katta ahamiyat kasb etmaganligi uchun o'zbek til o'rganuvchilari, odatda, ingliz tilida gapirayotgan paytlarida intonatsiya va urg'uni notog'ri qo'llashadi yoki umuman, ko'tarilish yoki pasayishsiz bir ohangda gapirishadi. Bu ingliz tilida turli tushunarsizliklarga olib keladi.

Qisqa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tili fonetikasi va talaffuzida bir qancha muhim tafavutlar mavjud. O'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlar, urg'u (stress), intonatsiya va fonetik qonuniyatlarning farqliligi sababli aksariyat o'zbek o'quvchilari inglizcha talaffuzda xatolarga yo'l qo'yishadi. Ingliz tilining fonetik jihatlari chuqur o'rganish nafaqat talaffuzni yaxshilash, balki tilni tabiiy ravishda o'zlashtirishga ham hissa qo'shadi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu muammoni yanada chuqurroq o'rganish, o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun maxsus fonetik materiallar va usullar ishlab chiqishga yo'naltirilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, ingliz tilini o'rganish jarayonini osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoimova F. 2024. Ingliz tilini o'rganishda fonetikaning roli. Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World. Volume 01, Issue 11, 2024.
2. G'aniyeva, H. (2022). INGLIZ TILIDA MONOFTONG, DIFTONG VA TRIFTONGLAR. Maktabgacha ta'lim Jurnal, 6(6). Retrieved from <https://presedu.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/7329>
3. Искандарова, Д., & Шербоев, Н. (2024). O'zbek hamda ingliz tillaridagi fonetik o'xshashliklar va farqlanishlar hamda ularning tarjimaga ta'siri . Гейбулла Саломов и узбекская школа перевода, 1(1), 8–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7481925>
4. Mark Hancock. English Pronunciation in Use. Self-study and classroom use. Cambridge University Press.
5. Ibragimova Sugdiyona (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TABULARNING FONETIK XUSUSIYATLARI. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2 (5), 66-72. doi: 10.5281/zenodo.11473609